



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

2023- yil “24” yanvar

BUYRUQ № 4

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son Farmoni, 2019-yil 9-martdagi “Davlat boshqaruvining ochiqqligi va shaffofligini ta‘minlash hamda mamlakatning statistika salohiyatini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4273-son va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2023-yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston ma‘muriy islohotlari doirasida Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 24-dekabrdagi PQ-447-son qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. Statistik ma‘lumotlarni olish davrini 5 kundan 1 daqiqaga qisqartirish, statistik ma‘lumotlarni shakllantirish va axborot almashinuvi jarayonida qog‘oz sarfidan to‘liq voz kechish hamda yig‘ma ma‘lumotlarni e‘lon qilish vaqtini ikki baravarga tezlashtirish hamda mavjud axborot tizimlari bilan integratsiya qilish maqsadida, “Statistika” integrallashgan axborot tizimi ishlab chiqilib, ishga tushirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Statistika” integrallashgan axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda – SIAT)ni yuritish bo‘yicha reglament 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

SIAT yuritilishi mazkur Reglamentga qat‘iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi ta‘minlansin.

3. SIAT faoliyatini sifatli tashkil etish va uni doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadida:

- Yig‘ma-axborot ishlari boshqarmasi (X. Juraev) tarmoq boshqarmalari bilan birgalikda SIATda e‘lon qilinayotgan ma‘lumotlar tarkibini yanada kengaytirish ishlarini amalga oshirsin;

- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasi (SH. Odilov) SIATning dasturiy-texnik tomondan qo‘llab-quvvatlash va takomillashtirish ishlarini amalga oshirsin;

- Axborot xavfsizligi boshqarmasi (SH. Djanadilov) SIAT joylashgan serverlarning barqaror faoliyat yuritishi va axborot xavfsizligini ta‘minlash choralari ko‘rsin.

4. Tarmoq boshqarmalari boshliqlari SIATga ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda joylashtirilishi, ularning metama'lumotlari va ko'rsatkichlarining to'g'ri va to'liq dinamik qatorlarda kiritilishini ta'minlasinlar.

Statistik ma'lumotlar va ko'rsatkichlarning haqqoniyligi va ishonchliligi hamda tarkibiy jihatdan to'g'riligi va to'liqligiga, ushbu ma'lumotlarni ishlab chiqqan va tizimga joylashtirgan tarmoq boshqarmasi boshlig'i javobgar hisoblanadi.

5. Axborot xizmati (U. Abdurasulov) SIAT ishga tushirilganligi to'g'risida ommaviy axborot vositalari, rasmiy veb-saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng targ'ibot ishlarini tashkil qilish choralarini ko'rsin.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi (F. Berdibayev) ushbu buyruqni Statistika agentligi markaziy apparati boshqarmalari va hududiy statistika organlariga yetkazilishini ta'minlasin.

7. Davlat statistika qo'mitasining 2010- yil 4- avgustdagi Asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar ma'lumotlar bazasini yaratish uchun dinamik qatorlarni tashkil etish va yuritish tartibini tasdiqlash to'g'risidagi 22-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish rais o'rinbosarlari (A. Ikramov, Z. Ziyaev) zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil 24-yanvardagi
4-son buyrug'iga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining "Statistika" integrallashgan
axborot tizimini yuritish bo'yicha**

REGLAMENT

I. Umumiy qoidalar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (keyingi o'rinlarda Agentlik) rasmiy axborot resursi bo'lgan "Statistika" integrallashgan axborot tizimi (keyingi o'rinlarda SIAT) yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro hamkorlikning zarur va samarali vositasi bo'lib, uni yuritish, qo'llab-quvvatlash va tegishli malumotlar bilan to'ldirib borish mazkur (keyingi o'rinlarda Reglament)ga muvofiq amalga oshiriladi.

1.2. SIAT internet global axborot tarmog'iga ulangan holda faoliyat olib boradi.

Ushbu Reglamentda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

statistika ma'lumotlar – statistika kuzatuvlari natijasida va (yoki) ma'muriy ma'lumotlar asosida tayyorlangan iqtisodiy, demografik, ijtimoiy, moliyaviy, ekologik xususiyatga hamda boshqa xususiyatga ega axborot;

metama'lumotlar – foydalanuvchilarga ma'lumotlarning manbalari, uslubiyatlari, ta'riflari, tasniflari va sifati to'g'risida axborot taqdim etish yo'li bilan statistika ma'lumotlarini hamda jarayonlarini standartlashtirilgan tarzda tavsiflovchi ma'lumotlar;

dinamik qatorlar – xronologik tartibda joylashgan va o'rganilayotgan xodisaning rivojlanishini, uning yo'nalishi va qonuniyligini ifodalovchi bir xil ko'rsatkichlarning ketma-ketligi, to'liq, nisbiy ma'lumotlar va o'rtacha mikdorlarni, mavridli (belgilangan sanalarga) va oraliq (ma'lum bir davr) ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar;

axborot xavfsizligini ta'minlash – individual ma'lumotlarni, umumlashtirilgan maxfiy ko'rsatkichlarni himoya qilish hamda ularning oshkor etilishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha tartibga soluvchi, ma'muriy, texnik va tashkiliy tushdagi choralarni ta'minlash.

II. Dasturiy-texnik qo'llab-quvvatlash

2.1. SIAT faoliyatini tashkil etish Agentlikning Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirishga mas'ul tarkibiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi, jumladan:

- SIATning modullari, uning dizayni va interaktiv xizmatlar ishlab chiqish hamda joriy etish;
- asosiy internet-kataloglarda hamda mahalliy va xorijiy qidiruv tizimlarida ro'yxatdan o'tkazish;
- SIAT dasturiy kodi va modullarini takomillashtirish;
- SIATning texnik talablari, dizayni va texnik xizmat ko'rsatish talablari, shu jumladan SIATning boshqaruv talablarini bajarilishini nazorat qilish.

III. Tashkiliy-texnik qo'llab-quvvatlash

3.1. SIATni texnik jihatdan qo'llab quvvatlash, ularda axborot xavfsizligini va SIAT joylashgan server qurilmalarning uzluksiz ishlashini ta'minlash Agentlikning axborot xavfsizligiga mas'ul tarkibiy bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi, jumladan:

- SIATning tashkiliy-texnik qismini loyihalash, joriy etish va qo'llab-quvvatlash;
- SIAT axborot resurslarining axborot xavfsizligini ta'minlash;
- SIAT ma'lumotlarini zaxira qilishni tashkil qilish;
- foydalanuvchilarni SIATning ishlash usullari va texnik nosozliklar haqida xabardor qilish;
- SIATdagi axborot resurslarining saqlanishi, zaxiralanishi va himoyasi ustidan doimiy nazoratni ta'minlash;
- SIAT joylashtirilgan serverni barqaror ishlab turishini ta'minlash.

IV. Axborot ta'minoti

4.1. SIATni ma'lumotlar bilan to'ldirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha ishlarni bajarishga Agentlikning Yig'ma axborot ishlar boshqarmasi, Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi hamda tarmoq boshqarma va bo'limlari mas'uldir.

Tarmoq boshqarmalari quyidigi vazifalarga:

- SIATga joylashtirish uchun e'lonlar, dinamik qatorlarda statistik ma'lumotlar va ularning metama'lumotlarini tayyorlash;
- SIATda joylashtirilgan material tegishli va ishonchli bo'lishi, ishlarning hozirgi holatini aks ettirishi, qabul qilingan imlo va stilistika me'yorlariga muvofiq bo'lishini nazorat qilish;
- SIATga kiritilgan statistik ma'lumotlarni yangilab borish;
- Statistika dasturi asosida e'lon qilinishi kerak bo'lgan statistik ma'lumotlar SIATga joylashtirilishini ta'minlash.

Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi

Statistik ma'lumotlar nomi, identifikatsiya raqami, statistik ko'rsatkich kesimi va statistik ko'rsatkichning vizualizatsiya turlarini SIATga kiritadi.

Yig'ma axborot ishlar boshqarmasi quyidagi vazifalarga:

- SIATda e'lon qilingan materialda xatoliklar yoki noaniqliklar aniqlangan taqdirda, xatolar yoki noto'g'ri ma'lumotlar aniqlangan kundan boshlab 1 ish kuni mobaynida tuzatilgan matnni nashr etish va tuzatishlar faktini tegishli eslatma bilan xabar qilish;

- SIATda joylashtirilgan ma'lumotlarni o'z vaqtida yangilanishini nazorat qilish.

V. SIATda statistik ma'lumotlarni joylashtirish, yangilash, tahrirlash va boshqarish tamoyillari

5.1. SIATda joylashtiriladigan ma'lumotlar rasmiy tusga ega.

5.2. SIATda statistik ma'lumotlar joylashtirilganda, yangilanganda va tahrirlanganda avtomatik ravishda 3 tilda e'lonlar shakllantiriladi.

5.3. SIATda amaldagi qonunchilikka muvofiq cheklangan ma'lumotlarga tegishli axborotni joylashtirish taqiqlanadi.

5.4. Agentlik tomonidan tayyorlanmagan statistik ma'lumotlar Agentlikning direktori buyrug'iga asosan SIATda e'lon qilinadi.

5.5. SIATda yangi statistik ma'lumotlarni qo'shish 1-ilovada ko'rsatilgan sxema asosida amalga oshiriladi.

5.6. SIATda mavjud statistik ma'lumotlarni yangilash 2-ilovada ko'rsatilgan sxema asosida amalga oshiriladi.

5.7. SIATda joylashtirish uchun tayyorlangan statistik ma'lumotlar fayli 3-ilovada ko'rsatilgan namunaga muvofiq bo'lishi shart.

5.8. SIATda yangi statistik ma'lumotlarni qo'shish uchun Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga taqdim etilishi kerak bo'lgan bildirshnoma 4-ilovada ko'rsatilgan namunaga muvofiq bo'lishi shart.

5.9. Metama'lumotlarda quyidagi rekvizitlar bo'lishi kerak:

- identifikatsiya raqami (kodi);
- birinchi nashr sanasi;
- oxirgi tahrirlangan sana;
- statistik ko'rsatkich nomi;
- davriyligi;
- o'lchov birligi;

- statistik ko'rsatkich kesimini shakllantirishda foydalanilgan klassifikatorlar nomi;
- hisoblash metodikasi;
- rasmiy statistika tayyorlovchi;
- mas'ul boshqarma nomi;
- mas'ul xodim familiya, ismi va sharifi;
- bog'lanish uchun telefon raqami;
- elektron pochta;
- birlamchi ma'lumot manbasi;
- izoh (izoh qoldirilishi shart bo'lganda).

5.10. Statistik ma'lumotlarni joylashtirish va SIATning administrator qismidan foydalanish belgilangan Agentlik tarkibiy bo'linmalarining maxsus xodimlari (keyingi o'rinlarda moderatorlar) tomonidan amalga oshiriladi.

5.11. Moderatorlarni ro'yxatga olish, huquqlarni belgilash va materialni joylashtirish modullariga kirishni ta'minlash uchun, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish va interaktiv davlat xizmatlari boshqarmasiga bildirishnoma taqdim etilgandan so'ng (bildirishnoma taqdim etish jarayoni elektron tarzda ham amalga oshirilishi mumkin) **1 ish kunida** ushbu huquqlarni berishni ta'minlaydi.

5.12. SIATni boshqarish va to'ldirish tizimlariga kirish uchun talab qilinadigan ma'lumotlar rasmiy maxfiylik toifasiga kiradi. Olingan ma'lumotlarning xavfsizligi va maxfiyligi uchun javobgarlik moderator va unig rahbari zimmasidadir.

5.13. Statistik ma'lumotlar va ko'rsatkichlarning haqqoniyligi va ishonchliligi hamda tarkibiy jihatdan to'g'riligi va to'liqligiga, ushbu ma'lumotlarni ishlab chiqqan va tizimga joylashtirgan tarmoq boshqarmasi boshlig'i javobgar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil 24-yanvardagi
4-son buyrug'i bilan tasdiqlangan
Reglamentga 1-ilova

**“Statistika” integrallashgan axborot tizimida
yangi statistik ma'lumotlarni qo'shish
SXEMASI**

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Tarmoq boshqarmalari	Yangi statistik ma'lumotni SIATda ma'lumotlar nomi, reestrda identifikatsiya raqami, statistik ko'rsatkich kesimi, statistik ko'rsatkichning vizualizatsiya turlari va statistik ko'rsatkichning metama'lumotlarini kiritib berish uchun Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasiga bildirishnoma kiritadi.	Zarurat tug'ilganda
2-bosqich	Statistika ishlarini tashkil etish va metodologiya boshqarmasi	Bildirishnomaga asosan yangi statistik ma'lumotni statistik ma'lumotlar nomi, identifikatsiya raqami, statistik ko'rsatkich kesimi, statistik ko'rsatkichning vizualizatsiya turlarini SIATga kiritadi.	1 kun ichida
3-bosqich	Tarmoq boshqarmalari	Yangi statistik ma'lumot ko'rsatkichlarini va metama'lumotlarini SIATga yuklaydi va bu haqda Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasini habardor qiladi	4 soat ichida
4-bosqich	Tarmoq boshqarmalari	Statistik ma'lumotning davriy ketma-ketligini sozlaydi va ma'lumotni faollashtiradi hamda uni yakuniy tekshiruvdan o'tkazadi.	30 daqiqa ichida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil 24-yanvardagi
4-son buyrug'i bilan tasdiqlangan
Reglamentga 2-ilova

**“Statistika” integrallashgan axborot tizimida
joylashtirilgan statistik ma'lumotlarni yangilash
SXEMASI**

Bosqichlar	Ijrochilar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari
1-bosqich	Yig'ma-axborot ishlari boshqarmasi	SIATda joylashtirilgan statistik ma'lumotlarning yangilanish davrlari aks ettirilgan “Statistika taqvimi”ni ishlab chiqadi va tarmoq boshqarmalari tomonidan mazkur taqvimdagi muddatlarga rioya etilishini nazorat qiladi.	Doimiy
2-bosqich	Tarmoq boshqarmalari	Yangilash kerak bo'lgan statistik ma'lumotni SIATga yuklash.	Statistika taqvimida belgilangan muddatlarda
3-bosqich	Tarmoq boshqarmalari	Statistik ma'lumotning davriy ketma-ketligini sozlaydi hamda uni yakuniy tekshiruvdan o'tkazadi.	10 daqiqa ichida

Code	Klassifikator	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
1700	O'zbekiston Respublikasi	28001,4	29123,4	29555,4	29993,5	30492,8	31022,5	31575,3	32120,5	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9	35271,3
1735	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1632	1680,9	1692,8	1711,8	1736,5	1763,1	1791,1	1817,5	1842,3	1869,8	1898,3	1923,7	1948,5
1735401	Nukus shahri	271,5	284,3	286,4	289	295,2	300,7	303,7	307,4	310,9	314,9	319,6	323,8	329
1735204	Amudaryo tumani	163,5	172,3	174,4	176,8	179,1	182,2	185,7	188,7	191,6	195,3	199,2	201,4	204,8
1735207	Beruniy tumani	159,1	162,2	164,5	167,3	170,3	173,7	177,2	180,5	183,9	187,6	191,4	194,5	197,4
1735209	Bo'zatov tumani	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0	21,5	21,7	21,8
1708228	Paxtakor tumani	62,4	63,6	64,7	65,5	66,8	68	69,3	70,6	71,7	72,9	74,3	75,7	77,5
1708235	Forish tumani	77	79,9	81	82	83,4	85	86,7	88,1	89,6	90,9	92,4	93,8	95,3
1708237	Yangiobod tumani	24,2	24,5	24,8	25,1	25,5	25,9	26,4	26,8	27,2	27,6	28,1	28,6	29
1710	Qashqadaryo viloyati	2616,1	2722,9	2777,8	2831,3	2895,3	2958,9	3025,6	3088,8	3148,4	3213,1	3280,4	3335,4	3408,3
1710401	Qarshi shahar	238,2	242,7	247	250,7	254,6	257,8	260,7	264,2	267,6	270,7	274,9	278,3	283,2
1710405	Shahrisabz shahar	0	0	0	0	0	0	0	0	134,5	137,1	139,1	140,5	142,7
1710207	G'uzor tumani	161,8	172,4	175	178,1	181,6	185,3	189,1	192,6	195,8	199,2	203,4	207,7	212,4
1710212	Dehqonobod tuman	117,5	120,3	122,9	125,7	128,8	131,6	134,7	137,7	140,7	143,8	146,9	149,8	153,1

////

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil 4-yanvardagi
4-son buyrug'i bilan tasdiqlangan
Reglamentga 3-ilova

name_uz	name_ru	name_en	value_uz	value_ru	value_en
Ma'lumotlar to'plami	Идентификационный номер	Indicator			
identifikatsiya raqami (kodi)	индикатора (код)	identification			
Ma'lumotlar to'plami nomi	Имя индикатора	number (code)			
Davriyligi	Периодичность	Indicator name			
		Periodicity			
		Unit of			
O'lchov birligi	Единица измерения	measurement			

Klassifikatorlar	Классификаторы	Classifiers
Hisoblash metodikasi	Методы расчета	Calculation
	Составитель официальной	methodology
Rasmiy statistika tayyorlovchi	статистики	Official statistics
		preparer
Mas'ul boshqarma nomi	Ответственное управление	Name of
		department
Mas'ul xodim F.I.O.	Ответственный сотрудник ФИО	Responsible officer
Telefon raqami :	Номер телефона :	name
Elektron pochta	Электронная почта	Phone number :
		Email
		Primary source of
Birlamchi ma'lumot manbasi	Первичный источник информации	information
Izoh	Примечание	Note

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil 24-yanvardagi
4-son buyrug'i bilan tasdiqlangan
Reglamentga 3-ilova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2023-yil 24-yanvardagi
4 -son buyrug'i bilan tasdiqlangan
Reglamentga 4-ilova

Statistika ishlarini tashkil etish va
metodologiya **boshqarmasiga**

“Statistika” integrallashgan axborot tizimiga yangi statistik ma'lumotlarni kiritib
berish (yoki statistik ma'lumotlarni
metama'lumotini yangilash) uchun

Bildirishnoma

T/r	Statistik ma'lumot nomi	Statistik ma'lumot joylashtirish kerak bo'lgan bo'lim nomi	Statistik ma'lumot joylashtirish kerak bo'lgan bo'lim kodi
1			<u>Ushbu qator</u> <u>faqat yangilash</u> <u>davrida</u> <u>qo'shiladi</u>
2			

1

Tegishli boshqarma

F.I.SH

imzo